


TARIX

1. Ilk o'rta asrlarda mamlakatimiz hududlarida shakllangan tabaqalar va ularning jamiyatdagi ijtimoiy mavqei bir-biri bilan mos ravishda berilgan javobni toping.
1) dehqon; 2) kadivar; 3) kashovarz
a) qishloq jamoalari yerlarida yashab yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo'lgan erkin ziroatchilar tabaqasi; b) yerli mulkdor toifa; c) yersiz va erksiz qaram toifa
A) 1-b, 2-a, 3-c B) 1-a, 2-b, 3-c
C) 1-a, 2-c, 3-b D) 1-b, 2-c, 3-a
2. Quyidagilardan qaysi biri qadimgi Rimda ov xudosi hisoblangan?
A) Venera B) Merkuriy C) Diana
D) Morfey
3. 2008-yil Gruziya, Rossiya, Abxaziya va Janubiy Osetiya ishtirokida harbiy to'qnashuv yuz bergan vaqtda kim Gruziya Prezidenti edi?
A) Zviad Gamsaxurdiya
B) Eduard Shevardnadze
C) Georgiy Margvelashvili
D) Mixail Saakashvili
4. AQSh da fuqarolar urushi 1865-yilning aprelida Shimolning g'alabasi bilan tugadi. Natijada ...
A) Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilindi
B) Buyuk Britaniya AQSh ning mustaqilligini tan oldi
C) Prezident lavozimi ta'sis etildi
D) "Gomstedlar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi
5. Tarixiy-mantiqiy bog'liqlik (ketma-ketlik, moslik) to'g'ri berilgan javobni toping.
A) Xitoy – «Sinxay inqilobi»ning boshlanishi – Respublika boshqaruvining o'rnatilishi
B) Yaponiya – Simonoseki sulhining imzolanishi – Ixetuan harakatining boshlanishi
C) Eron – «Shahanshohbank»ning ochilishi – Dyurand bitimining imzolanishi
D) Hindiston – taypinlar qo'zg'olonining boshlanishi – «Musulmonlar ligasi»ning tuzilishi
6. Quyidagi ma'lumotlar qaysi hukmdor haqida ekanligini toping.
"XVI asrda Hindistonda hukmronlik qilgan. Unga qarshi birlashgan mahalliy zodagonlar tomonidan 1540-yilda taxtdan ag'darilgach, Eron shohi Taxmasp I saroyidan panohtopgan. Uzoq kurashlardan so'ng, 1555-yilda Dehlini qaytarib olishga muvaffaq bo'lgan".
A) Avrangzeb B) Akbarshoh C) Humoyun
D) Bahodirshoh II
7. Qadimgi Misr janubda qaysi davlat bilan chegaradosh bo'lgan?
A) Suriya B) Liviya C) Mesopotamiya
D) Nubiya
8. Quyidagi asarlardan qaysi birida shayboniylar va Eron safaviylari o'rtasidagi munosabatlar haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan?
A) Abdurahmon Tolening "Abdulfayzxon tarixi" asarida
B) Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida
C) Muhammad Ya'qub ibn Doniyolbiyning "Gulshan ul-muluk" asarida
D) Kamoliddin Binoiyning "Shayboniynoma" asarida
9. 1870-1918-yillardagi AQSh tarixiga oid ma'lumotni aniqlang.
A) Prezident Franklin Ruzvelt "Yangi kurs" siyosatini amalga kiritdi.
B) Prezident Taft "Dollar diplomatiyasi" siyosatini e'lon qildi.
C) Shimoliy va janubiy shtatlar o'rtasida fuqarolar urushi boshlandi.
D) Qulchilik bekor qilindi.
10. Quyidagi qaysi voqea Rossiya imperatori Nikolay II hukmronligi davriga to'g'ri keladi?
A) Rossyaning birinchi jahon urushidan chiqishi
B) Uchlar ittifoqining tashkil topishi
C) birinchi jahon urushining tugashi
D) birinchi jahon urushining boshlanishi
11. Qadimgi Rimda kimlar kolonlar deb atalgan?
A) erkin dehqonlar B) qullar
C) mayda yer ijarachilari
D) yerni ijaraga beruvchilar

12. 1919-yildagi Parij konferensiyasida Xitoy qanday talablar bilan ishtirok etgan?
1) yapon qo'shinlarining Xitoy hududini bosib olishlarini to'xtatish; 2) chet davlatlarning Xitoyga moliyaviy yordam ko'rsatishi; 3) Shandun orolini ozod qilish; 4) Tayvan orolini Xitoyga qaytarish; 5) Xitoyning suvereniteti va yaxlitligini tan olish.
A) 1, 3, 5 B) 2, 3, 5 C) 2, 4, 5 D) 1, 2, 4
13. Quyida berilganlardan qaysilarida **davlat-shaxs-voqea** mosligi to'g'ri berilgan?
1) Sovet Rossiyasi – V.I.Lenin – mamlakatda "harbiy kommunizm" siyosati o'rnatildi;
2) Chili – Salvador Alyende – mamlakatda davlat to'ntarishini amalga oshirdi;
3) AQSh – Duayt Eyzexauer – mamlakatda makkartizm avj oldi;
4) Fransiya – Charl de Goll – Buyuk Britaniya bilan Chexoslovakiyani fashistik Germaniyaga topshirgan Myunxen kelishuvini imzoladi;
5) Xitoy – Den Syaopin – Tyananmin maydonidagi talabalar namoyishi kuch bilan bostirildi
A) 1, 4, 5 B) 1, 3, 5 C) 2, 4, 5 D) 2, 3, 4
14. XIII asr boshlarida Angliya qiroli tomonidan imzolangan qaysi hujjatda qiroli baronlarni qamamaslik, ularning mol-mulkidan mahrum etmaslik shartlarini qabul qilgan edi?
A) "Qonunlarning buyuk to'plami"da
B) "Dahshatli sud kitobi"da
C) "Buyuk ozodlik xartiyasi"da
D) "Mayl End" dasturida
15. Somoniylar davlati ravnaq topgan davrda uning tarkibiga kirgan hududlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
1) Movarounnahr; 2) Iroq; 3) Xuroson;
4) Shimoliy Hindiston; 5) Shimoliy va Sharqiy Eron; 6) Ozarbayjon
A) 1, 3, 5 B) 1, 4, 6 C) 2, 3, 6 D) 2, 4, 5
16. Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan «oq koloniya»ni toping.
A) Afg'oniston B) Hindiston C) Eron
D) Avstraliya


17. XIX asr o'rtalarida Qo'qon xonligining savdo-sotiq va madaniy markazlari hisoblangan shaharlarni aniqlang.
1) O'sh; 2) Turkiston; 3) Kitob; 4) G'uzor
A) 2, 3 B) 2, 4 C) 1, 3 D) 1, 2
18. 1745-yilda jung'orlar Farg'ona vodiysiga yangidan hujum boshlagan paytda dushmanga qarshi qaysi urug'lar birgalikda kurashdi?
1) mang'itlar; 2) minglar; 3) yuzlar;
4) kenagaslar; 5) qipchoqlar; 6) qo'ng'irotlar;
7) qirg'izlar
A) 2, 4, 6, 7 B) 2, 3, 5, 7 C) 1, 3, 5, 6
D) 1, 2, 4, 6
19. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyer-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni toping.



- a) Yevropa davlatlarining mustamlakachilik zulmiga qarshi kurashib, o'z mustaqilligini saqlab qoldi; b) davlatning tashkil topishi AQShda qulchilikka qarshi kurash bilan bog'liq;
c) Kassa o'zini mamlakat imperatori deb e'lon qilgan; d) davlatda G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikadagi ilg'or tartib-qoidalar joriy etilgan; e) Adua yonida bo'lib o'tgan jangda Italiya qo'shinlarini mag'lub etgan;
f) Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lgan.
A) I-b, f; II-c, e; III-d B) I-c, e; II-b, d; III-a
C) I-a, b; II-e, f; III-d D) I-b, e; II-c, d; III-a

20. Nuqtalar o'rniga mos keladigan javobni toping.
O'rta asrlar:
1) Usmonlilar davlati – Mexmet II;
2) Vizantiya imperiyasi – Yustinian I;
3) Muqaddas Rim imperiyasi – ...
A) Buyuk Alfred B) Filipp IV
C) Otton III D) Asparux

21. Quyidagi grafikda qaysi raqam ostida tarixiy asar va uning muallifi bir-biriga muvofiq keladi?



- A) 3, 6 B) 4, 6 C) 1, 3 D) 2, 5
22. Qaysi voqeadan so'ng qirol Viktor Emmanuil III Benito Mussolinini hukumat boshlig'i etib tayinlagan?
- A) 1923-yil davlat to'ntarishidan so'ng
 B) Mamlakatdagi so'l kuchlar Xalq frontini tuzgandan so'ng
 C) Fashistik guruhlarining mashhur Rimga yurishidan so'ng
 D) Mamlakatda Katta fashistik kengash tuzilganidan so'ng
23. Quyida sanab o'tilganlardan qaysilari Amerika burjua inqilobi davriga aloqador emas?
 1) "Uchlar ittifoqi"; 2) Parij sulhi; 3) "Iyul monarxiyasi"; 4) "Mustaqillik Deklaratsiyasi"; 5) "Muqaddas ittifoq"; 6) "Ikkinchi Qit'a Kongressi"
- A) 1, 4, 6 B) 2, 3, 5 C) 2, 4, 6 D) 1, 3, 5

24. Quyidagi qaysi hukmdorlar mil.avv. VI asrda hukmronlik qilgan?

1) Kir II; 2) Doro III; 3) Aleksandr Makedonskiy; 4) Kambiz II
 A) 1, 3 B) 1, 4 C) 2, 4 D) 2, 3

25. Quyida berilgan qaysi oqim nomi "tanazzulga yuz tutishlik, umidsizlik kayfiyati, hayotdan bezishlikni aks ettiruvchi oqim" ma'nosini bildiradi?

A) *impressionizm* B) *yevrosentrizm*
 C) *dekadentlik* D) *realizm*


26. Monopolistik kapitalizm bosqichida Rossiyaga eng ko'p kapital kiritgan (a) va Xitoyda tovar ayirboshlashda birinchi o'rinda turgan (b) davlatlarni toping.

1) Fransiya; 2) Buyuk Britaniya; 3) Germaniya;
 4) AQSh
 A) a-1, b-2 B) a-3, b-2 C) a-3, b-4
 D) a-1, b-4

27. Ma'sud G'aznaviy hukmronligi tugagan yilda bo'lib o'tgan voqeani belgilang.

A) *Somoniylar davlati barham topdi.*
 B) *Ibrohim Bo'ritegin Xuttalon, Vaxsh va Chag'oniyonni g'aznaviylardan tortib oldi.*
 C) *Qoraxoniylar davlati barham topdi.*
 D) *Xorazm Saljuqiylar davlatiga qaram bo'lib qoldi.*

28. Xaritada yulduzcha bilan ko'rsatilgan hududda qadimgi davrda vujudga kelgan davlatni toping.



- A) Maurya davlati B) Chjou davlati C) Pekche davlati D) Koguryo davlati

29. V asrda xaritada yulduzcha bilan belgilangan hudud(davlat)ga harbiy yurish qilgan ko'chmanchi qabila sardorini toping.



- A) Yustinian I B) Mark Krass C) Buyuk Karl D) Attila

30. Quyidagi jadvalda tarixiy voqea va uning natijasi o'zaro **nomuvofiq** berilgan qatorlarni aniqlang.

№	Voqea	Natija
1.	«Oq kiyimlilar» qo'zg'oloni	Qo'zg'olonchilarning mag'lubiyati
2.	1877-1878-yillardagi Rossiya-Turkiya urushi	San-Stefano shartnomasining imzolanishi
3.	1512-yilda Elbarsxon Xorazm taxtini egalladi	Qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligining boshlanishi
4.	Kubadagi 1959-yilgi inqilob	F. Kastroning hokimiyat tepasiga kelishi
5.	1924-yilda O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi	Turkiston ASSR, BXSr va XXSRning tashkil topishi

- A) 3, 5 B) 3, 4 C) 1, 2 D) 1, 5